Ключевые слова: диверсификация экспорта, текстильная промышленность, экономическая устойчивость, конкурентоспособность, международный рынок.

KIRISH

Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish tashqi iqtisodiy faoliyatga bevosita bog'liq bo'lib, xalqaro savdoning rivojlanishi ixtisoslashuv hamda kooperatsiya jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda tashqi savdo jarayonida sanoat mahsulotlari, xususan, yengil sanoat, to'qimachilik va tikuvchilik sanoati eksporti iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro talabga mos,



qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlash, tashqi bozorlarga chiqish, valyuta tushumlarini oshirish hamda savdo balansini yaxshilash imkoniyati yaratiladi.

Mazkur sanoat mahsulotlarining tashqi bozorlarga yo'naltirilishi korxonalarda ilg'or texnologiyalarni joriy etishni, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni va mahsulot sifatini xalqaro standartlar darajasiga yetkazishni talab etadi. Bu esa o'z navbatida mehnat unumdorligini oshiradi, zamonaviy ish o'rinlarini yaratadi va aholi bandligi darajasining ko'tarilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tikuvchilik va to'qimachilik sanoati eksportining ko'payishi xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirib, milliy iqtisodiyotning tashqi savdo munosabatlarida barqaror va mustahkam o'rin egallashiga imkon yaratadi.

Ma'lumki, to'qimachilik mahsulotlari tarkibiga kiyim-kechak ishlab chiqarishda foydalaniladigan xomashyolar hamda tayyor kiyim-kechaklar kiradi. Ushbu mahsulotlar eksporti ko'plab davlatlar uchun muhim daromad manbai hisoblanadi. Xalqaro statistika ma'lumotlariga ko'ra, masalan, 2022-yilda Xitoy jahon bozorida to'qimachilik mahsulotlari eksporti bo'yicha yetakchilikni saqlab qolgan bo'lib, umumiy eksport hajmi taxminan 148 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan. Xitoy eksport hajmining deyarli yarmi miqdorida – taxminan 71 mlrd. AQSH dollarlik ko'rsatkich bilan Yevropa Ittifoqi ikkinchi o'rinni egallagan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Xitoyning eksport hajmi global to'qimachilik bozori hajmining qariyb 41,4 foizini tashkil etadi.

2022-yilda global miqyosda to'qimachilik mahsulotlarini eng ko'p import qilgan davlat Yevropa Ittifoqi bo'lib, uning import hajmi taxminan 78 mlrd. AQSH dollariga yetgan. Shu yili AQSH tomonidan 39 mlrd. AQSH dollarilik, Vyetnam tomonidan esa 19 mlrd. AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari import qilingan bo'lib, ular Yevropadan keyingi eng yirik ikki importyor sifatida qayd etilgan.

Global to'qimachilik va kiyim-kechak bozorining kelgusi yillarda sezilarli darajada o'sishi prognoz qilinmoqda. Jumladan, 2027-yilgacha ushbu bozor hajmining 2 trln. AQSH dollariga yetishi kutilmoqda. Osiyo – Tinch okeani mintaqasi dunyodagi eng yirik kiyim-kechak bozorlarini, xususan, Xitoy, Hindiston va Yaponiyani o'z ichiga oladi. Xalqaro savdo nuqtai nazaridan Xitoy jahonning eng yirik kiyim-kechak eksportchisi hisoblanadi, Bangladesh va Vyetnam esa kuchli beshlikka kiradi. Ko'plab Osiyo mamlakatlari o'z iqtisodiyotida to'qimachilik, kiyim-kechak va poyabzal (GTF – garment, textile, footwear) sanoatini rivojlantirib, yalpi ichki mahsulot (YAIM) va global bozordagi ulushini oshirib bormoqda.[1]

Shunga qaramay, yengil sanoat mahsulotlari eksportini rivojlantirish yo'lida bir qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan, ko'plab korxonalarda texnologik darajaning pastligi raqobatbardoshlikni cheklab qo'ymoqda. Mahsulot sifatining xalqaro standartlarga to'liq javob bermasligi eksport imkoniyatlarining susayishiga olib keladi. Logistika infratuzilmasining rivojlanmaganligi, transport xarajatlarining yuqoriligi hamda bojxona tartibotlarining murakkabligi tashqi bozorlarga chiqishni qiyinlashtiruvchi omillar sifatida e'tirof etiladi.

Bundan tashqari, xorijiy bozorlar bo'yicha marketing va tahliliy axborotning yetishmasligi ham sezilarli to'siq hisoblanadi. Kichik va o'rta korxonalar (KO'K) uchun eksport kreditlari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining sustligi eksport salohiyatini cheklavchi muhim omillardan biridir. Shuningdek, mahsulotlarga qo'shilgan qiymat darajasining pastligi, bozorlarni diversifikatsiya qilish strategiyasining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, yuqori kredit va energetika xarajatlari ham eksport faoliyatining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish sur'atining pastligi esa umumiy raqobatbardoshlikni pasaytiradi.

Ushbu to'siqlarni bartaraf etish uchun eksportga yo'naltirilgan texnologik modernizatsiya va institutsional islohotlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada mamlakatimizda ham mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida qator chora-tadbirlar belgilangan va izchil islohotlar olib borilmoqda.

Xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish, eksport tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini sezilarli darajada oshirish, umumiy eksport hajmini ikki barobar ko'paytirib, 45 mlrd. AQSH dollariga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6 500 tadan 15 000 taga yetkazish, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar eksporti hajmini 3,3 barobar oshirish, shuningdek, Yevropa davlatlariga GSP+ va boshqa imtiyozli tizimlar doirasida texnologik va tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish bo'yicha strategik chora-tadbirlar belgilab qo'yilgan [2].

Respublikada yengil sanoatning to'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo'ynachilik tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlarning turlari va assortimentini kengaytirish, tarmoq korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu imtiyozlar investitsiyalarni jalb etish, sanoatni modernizatsiya qilish va eksportni rag'batlantirishga xizmat qilmoqda [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro savdoda yengil sanoat, xususan to'qimachilik mahsulotlarining mamlakat iqtisodiy o'sishidagi ahamiyati juda yuqori bo'lib, bunda qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va



ushbu mahsulotlar eksportini diversifikatsiya qilish muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada xorijiy hamda mamlakatimiz olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan.

Jumladan, Burdenko va Bykasova Rossiya to'qimachilik sanoatining eksport va import tarkibi, shuningdek tashqi savdo siyosatining Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish kontekstida qanday o'zgarishlarga uchraganini tahlil qilgan. Bu holat O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, tashqi bozor integratsiyasida yuzaga keladigan xavf va imkoniyatlarni ko'rsatib beradi [4].

Amine va Cavusgil Buyuk Britaniya kiyim-kechak sanoati eksport strategiyalarini tahlil qilib, mahsulotni xorijiy bozorga chiqarishda mahalliyashtirish, sifatni nazorat qilish va brendlash muhimligini asoslab berganlar [5].

Bangladesh, Xitoy va Avstraliya tajribalari O'zbekiston uchun ham amaliy ahamiyat kasb etishi mumkin. Xususan, M. Ali, Z. H. Khan va Hossain M. E. o'z tadqiqotlarida Bangladesh misolida eksport diversifikatsiyasi bilan sanoat o'sishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni statistik usullar asosida asoslab berganlar [6].

Tsang W. Y. va Au K. F. o'z tadqiqotlarida Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining to'qimachilik va kiyim-kechak eksportida arzon narxlar va yuqori samaradorlik tufayli kuchli raqobat olib borayotganini ta'kidlab, bu holat NAFTA (ayniqsa, Meksika) bozorlarida ularning ulushi pasayishi xavfini tug'dirayotganini qayd etganlar. Kelajakda esa Osiyo ishlab chiqaruvchilari sifat va innovatsiyalarni oshirish orqali o'z raqobatbardoshligini mustahkamlashi lozimligini ta'kidlaganlar [7].

G. Gereffi iqtisodiy rivojlanishda to'qimachilik sanoatining roli faqat ish o'rinlarini yaratish bilangina cheklanmasdan, balki global qiymat zanjirlariga integratsiyalashish orqali eksport salohiyatini oshirishda ham muhim o'rin tutishini ta'kidlagan [8].

S. Frederick esa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun mintaqaviy to'qimachilik klasterlarini shakllantirish eksport imkoniyatlarini kengaytirishning samarali yo'li ekanini qayd etgan [9].

O'zbekiston ham so'nggi yillarda tikuv-to'qimachilik sanoatini milliy sanoatning eng faol va eksportga yo'naltirilgan tarmoqlaridan biriga aylantira oldi.

Sh. N. Otamurodov O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlari importi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida to'qimachilik sanoatining ishlab chiqarish zanjiridagi keyingi bosqich mahsulotlarini eksport qilish orqali valyuta tushumini bir necha barobar oshirish va yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyati mavjudligini ta'kidlagan [10].

G. A. Xodjaeva o'z tadqiqotida to'qimachilik sanoatining mamlakat sanoatidagi o'rnini, ishlab chiqarish quvvatlarining o'sib borayotganini, investitsiya hajmi va eksport ko'rsatkichlarining izchil o'sayotganini ilmiy asosda tahlil qilgan [11].

Shakirova Y. S. esa chuqur tahlil asosida O'zbekiston to'qimachilik sanoatining eksportdagi o'rnini mustahkamlashda marketing strategiyalari, xorijiy bozorga mos mahsulotlar ishlab chiqarish va logistika tizimini takomillashtirish zarurligini aniqlab bergan [12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada to'qimachilik va tikuv sanoati eksportining rivojlanish holatini o'rganishda xalqaro va milliy statistik ma'lumotlar bazalaridan foydalanilgan. Jumladan, Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) standartlari asosida mahsulot guruhlariga bo'yicha eksport hajmi va tarkibidagi dinamik o'zgarishlar tahlil qilingan.

Tadqiqotda guruhlash va taqqoslash usullari orqali O'zbekiston eksport tarkibidagi vertikal va gorizontal diversifikatsiya tendensiyalari aniqlangan. Shuningdek, eksport yo'nalishlari bo'yicha geografik diversifikatsiya ko'rsatkichlari, asosiy savdo hamkorlari bo'yicha eksport hajmlarining o'zgarishlari statistik jadvallar va grafiklar orqali vizual shaklda ifodalangan.

Tadqiqot natijalari asosida iqtisodiy va mantiqiy tahlil o'tkazilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur tavsiyalar eksport tarkibini takomillashtirish, qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini oshirish, shuningdek, tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR


2024-yilda O'zbekiston Respublikasining umumiy eksport hajmi 26,9 mlrd. AQSH dollariga yetib, 2023-yilga nisbatan 8,4 foizlik o'sish qayd etildi. Tashqi savdo ko'rsatkichlarining ijobiy dinamikasi mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, eksport tarkibini diversifikatsiyalash hamda xalqaro bozorga yo'naltirilgan sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar samarasi sifatida qaralmoqda.

Eksport tarkibida tovarlar yetakchi o'rinni egallab, umumiy eksport hajmining 73,3 foizini tashkil etdi. Tovarlarda ichida "boshqa tovarlar" guruhi 28 foiz, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 8,1 foiz, kimyo sanoati mahsulotlari esa 6,3 foiz ulushga ega bo'ldi. Shu bilan birga, sanoat mahsulotlari eksporti 4,2 mlrd. AQSH dollariga yetib, umumiy eksport tarkibida 15,6 foizlik salmoqqa ega bo'ldi.



Sanoat mahsulotlari eksportida to'qimachilik sohasi yetakchi yo'nalish bo'lib qolmoqda. Xususan, ip, mato va tayyor trikotaj buyumlar asosiy eksport segmentlarini tashkil etdi. Biroq, 2020–2024–yillar davomida to'qimachilik mahsulotlari eksportida o'zgaruvchan tendensiyalar kuzatildi.

- 2020–yilda mazkur ko'rsatkich 1 369,5 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa,
- 2021–yilda bu ko'rsatkich 2 243,6 mln. AQSH dollarga yetgan.
- Biroq, 2022–yildan boshlab global bozor muammolari, yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar, ishlab chiqarishdagi resurs cheklolari va raqobatning kuchayishi oqibatida eksport hajmlarida pasayish kuzatildi.
- 2024–yilda esa to'qimachilik mahsulotlari eksporti 1 992,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. (1-rasm)



1-rasm. To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (2024 yil)

To'qimachilik sanoati O'zbekiston iqtisodiyotida muhim rol o'ynab, aholining bandligini ta'minlash va eksport daromadlarini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shmoqda. Paxta yetishtirishda yetakchi bo'lgan mamlakatimiz so'nggi yillarda to'qimachilik mahsulotlari eksportini rivojlantirish orqali xom ashyodan qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish bosqichiga o'tmoqda.

Umuman olganda, eksport tarkibida xom ashyodan tayyor mahsulotlarga o'tish tendensiyasining kuchaygani O'zbekistonning jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar yetkazib berish salohiyatini oshirmoqda. Kelgusida yuqori texnologiyali tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish orqali eksport tarkibini yanada diversifikatsiya qilish imkoniyatlari mavjud.

So'nggi o'n yillik davomida O'zbekistonning to'qimachilik mahsulotlari eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Ilgari eksportda asosiy ulushni paxta xom ashyosi va to'qimachilik mahsulotlari (Kod – 52) tashkil qilgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning o'rnini tayyor mahsulotlar, xususan trikotaj matolar (Kod – 60) va trikotaj kiyim-kechaklar (Kod – 61) egallamoqda (1-jadval).

1-jadval. To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmi (ming AQSH dollari) [13]¹

Kod	Klassifikator	2014	2020	2024	2014-yilga nisbatan (barobar)	Jamiga nisbatan ulushi	
						2014	2024
50	Ipak	23582	74927,4	52949,3	2,2	1,19	1,78
52	Paxta (Kalava Ip va boshqa)	1653485	1200084	1391140	0,8	83,22	46,70
54	Kimyoviy iplar	716,8	3053,1	15076,5	21	0,04	0,51
55	Kimyoviy tolalar	6093,2	22275,5	44672,3	7,3	0,31	1,50
56	Vata, kigiz yoki fetr va noto'qima materiallar; maxsus yigirilgan ip;	22169	30923,4	65690,9	3	1,12	2,21

1 www.Stat.uz



57	Gilamlar	18878,9	29244,3	25025,4	1,3	0,95	0,84
58	Maxsus gazlamalar;	4004,1	6437,4	7844,5	2	0,20	0,26
59	To'qimachilik materiallari	323,3	1554,7	2070,5	6,4	0,02	0,07
60	Mashina yoki qo'lda to'qilgan trikotaj matolar	31123,8	144477	279224	3,9	1,57	9,37
61	Kiyim-kechak mahsulotlari, mashina yoki qo'lda to'qilgan trikotaj	190233	459243	737848	3,9	9,57	24,77
62	Kiyim mahsulotlari, mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotajlaridan tashqari	6789,9	47486,4	109246	16	0,34	3,67
63	Boshqa tayyor to'qimachilik buyumlari;	17833,9	88807,5	223183	12,5	0,90	7,49
64	Poyabzal va shunga o'xshash mahsulotlar	11156,6	36960,3	21187,8	1,9	0,56	0,71
65	Bosh kiyimlar va ularning qismlari	499,5	3624,6	3774,7	7,5	0,03	0,13
	Jami	1986889	2149099	2978933	1,5	100,00	100,00

Trikotaj matolar ulushi 1,57 foizdan 9,37 foizgacha, trikotaj kiyimlar ulushi esa 9,57 foizdan 24,77 foizgacha oshdi. Bu holat tayyor, qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlarga bo'lgan talab ortganini va ularning raqobatbardoshligi oshganini ko'rsatadi.

Shuningdek, kimyoviy iplar (Kod – 54), kimyoviy tolalar (Kod – 55), maxsus gazlamalar (Kod – 58) va poyabzallar (Kod – 64) kabi yangi mahsulotlar eksportga yo'naltirilishi natijasida eksport tarkibida gorizontall diversifikatsiya yuz bergani kuzatildi.

Paxta xom ashyosi ulushining 83,4 foizdan 46,7 foizgacha kamaygani esa mahsulotlarning chuqur qayta ishlanayotganini va vertikal diversifikatsiya jarayonining kuchayganini anglatadi.

Umuman olganda, tayyor, qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushining ortishi eksport tarkibining sifat jihatidan yaxshilanganini, to'qimachilik sanoatining esa qo'shilgan qiymat asosida rivojlanayotganini ifodalaydi.

2017–2024–yillardagi statistik ma'lumotlar tahlili O'zbekistonning paxta va uning tolalari eksporti tarkibida muhim o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi.

Dastlab qayta ishlanmagan paxta xom ashyosi (Kod – 5201) eksportda ustun bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda uning o'rnini yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar — paxta tolasi, ip, mato va tayyor kiyim-kechak egallay boshladi.

- 2017–yilda, qayta ishlanmagan paxta xom ashyosi eksporti 477 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa,
- 2020–yilda bu ko'rsatkich 147 mln. AQSH dollarga,
- 2024–yilda esa atigi 300 ming AQSH dollarga tushdi.

Aksincha, yuqori qayta ishlangan mahsulotlar eksporti keskin oshdi.

Jumladan, tarkibida 85 foizdan ortiq paxta bo'lgan ip (Kod – 5205) eksporti 2017–yildagi 629 mln. AQSH dollardan 2024–yilda deyarli 2 mlrd. AQSH dollarga yetdi.

85 foizdan kam paxta bo'lgan iplar (Kod – 5206) eksporti esa 2,3 mln. AQSH dollardan 25 mln. AQSH dollarga ko'tarildi.

Yangi mahsulot sifatida chakana savdoga mo'ljallangan tayyor ip (Kod – 5207) eksporti shakllanib, 2024–yilda 215 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Og'irroq paxtali matolar (Kod – 5209) eksporti barqaror o'sib, 2017–2024–yillar oralig'ida ikki baravardan ortiq ko'paydi.

Biroq yengil paxtali matolar (Kod – 5208) eksporti 2020–yildagi 86,4 mln. AQSH dollardan 2024–yilda atigi 0,1 mln. AQSH dollarga keskin kamaydi. Bu holat mazkur mahsulotga bo'lgan tashqi talabning pasayganini yoki ularning raqobatbardoshligining yetarli emasligini anglatishi mumkin. (2-jadval)

2-jadval. O'zbekistonning paxta va uning tolasi eksporti tarkibi 2017-2024 yillar ming AQSH dollari [13]²

Kod	Paxta tarkibi	2017	2020	2024
5201	Qayta ishlanmagan paxta	477101,9	147318,2	301,1
5204	Chakana savdoga qo'yilgan yoki qo'yilmagan paxta iplari	25,9	6,1	61,2
5205	Tarkibida og'irligi bo'yicha 85foiz yoki undan ortiq paxta bo'lgan, chakana savdoga qo'yilmagan paxta iplari (tikuv iplaridan tashqari)	629003,4	934086,6	1967167
5206	Tarkibida og'irligi bo'yicha 85foiz dan kam paxta bo'lgan, chakana savdoga qo'yilmagan paxta iplari (tikuv iplaridan tashqari)	2308,7	6743,6	25384,3
5207	Chakana savdoga qo'yilgan paxta iplari (tikuv iplaridan tashqari).	-	-	215739
5208	Tarkibida og'irligi bo'yicha 85foiz yoki undan ortiq paxta bo'lgan, og'irligi 200 g/m2 dan ortiq bo'lmagan paxtadan to'qilgan matolar	46344,9	86472,9	100,4
5209	Tarkibida og'irligi bo'yicha 85foiz yoki undan ortiq paxta bo'lgan, og'irligi 200 g/m2 dan ortiq paxtadan to'qilgan matolar	5886,9	9884,5	13513,5

Paxta mahsulotlari tarkibida chakana savdoga qo'yilmagan paxta iplari (Kod – 5205) eksporti nisbatan yuqori sur'atlar bilan o'sdi. Ya'ni, paxta tolasi eksportining qisqargani fonida qo'shilgan qiymati yuqoriroq bo'lgan mahsulotlar ulushi oshdi. Eksport tarkibida bunday mahsulotlar ulushining ortishi yangi bozorlar va mahsulot segmentlariga kirish, iqtisodiy barqarorlikka erishish hamda eksport diversifikatsiyasini ta'minlash orqali mamlakatimiz iqtisodiy o'sish salohiyatini kuchaytiradi.


Bu tendensiya O'zbekistonning paxtachilik sanoatida xomashyo emas, balki paxta asosida yarim tayyor va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi hamda eksport qiluvchi davlatga aylanish yo'nalishida izchil harakat qilayotganini ko'rsatadi.

Shu tariqa, paxta eksporti tarkibidagi bu o'zgarish qayta ishlash hajmining oshishi, qo'shilgan qiymatning ortishi va eksport sifatining yaxshilanishi bilan birga milliy iqtisodiyotning barqaror daromad manbalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

2017–2024–yillar davomida O'zbekistonning to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati eksportida nafaqat mahsulot tarkibida, balki uning geografik yo'nalishlarida ham muhim o'zgarishlar kuzatildi. Xalqaro savdo statistikasi asosida olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur davr mobaynida O'zbekiston uchun istiqbolli hisoblangan TOP–5 eksport yo'nalishlari – Rossiya (RUS), Xitoy (CHN), Turkiya (TUR), Qozog'iston (KAZ) va Qirg'iziston (KGZ) davlatlari bo'yicha eksport hajmlarining dinamikasi sezilarli o'zgarishga uchragan.

Eng jadal o'sish Rossiya Federatsiyasi bozorida kuzatilib, 2017–yilda 531,9 mln. AQSH dollarini tashkil etgan to'qimachilik mahsulotlari eksporti 2024–yilga kelib 2 404,9 mln. AQSH dollariga yetgan. Bu ko'rsatkich Rossiyaning O'zbekiston eksportidagi yetakchi savdo hamkoriga aylanganini anglatadi.

Xitoy (CHN) bozorida esa nisbatan barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan. (2-rasm)



2-rasm To'qimachilik mahsulotlari TOP-5 eksport yo'nalishlari dinamikasi 2017-2024-yillar [14]



2017–yilda 116,2 mln. AQSH dollarini tashkil etgan eksport hajmi 2024–yilga kelib 570,8 mln. AQSH dollariga yetdi. Bu holat Xitoy bozorining istiqboliligi va O'zbekiston mahsulotlariga nisbatan barqaror talab mavjudligini ko'rsatadi.

Qozog'iston (KAZ) bilan savdo aloqalari bosqichma–bosqich kengayib borgan bo'lib, 2024–yilga kelib eksport hajmi 159,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Qirg'iziston (KGZ) va Turkiya (TUR) yo'nalishlarida esa o'sish sur'atlari nisbatan past bo'lsa–da, ijobiy dinamika kuzatilmoqda.

Umuman olganda, 2017–2024–yillar davomida to'qimachilik mahsulotlari eksportining geografik diversifikatsiyasi kuchaygan bo'lib, bu O'zbekistonning xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashuv jarayonida faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi.

Mazkur tendensiyalar eksport strategiyasini yanada takomillashtirish, mavjud bozorlar salohiyatidan to'liq foydalanish hamda yangi savdo sheriklarini jalb etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ma'lumki, eksport diversifikatsiyasining samaradorligi, asosan, xalqaro bozorda raqobatbardosh va talab yuqori bo'lgan mahsulotlarga yo'naltirilgan taqdirda sezilarli darajada oshadi. Eksport tarkibini yuqori talabga ega mahsulotlar asosida shakllantirish har qanday davlat tashqi savdo siyosatida muhim strategik yo'nalish hisoblanadi.

Shu sababli, to'qimachilik va tikuv sanoati eksportini rivojlantirishda jahon bozorida mazkur mahsulotlar bo'yicha mavjud holatlarni tahlil qilish, ularning tendensiyalarini baholash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

2024–yilda tashqi bozordagi to'qimachilik mahsulotlari importi tarkibida eng katta ulushni tayyor kiyim–kechak mahsulotlari, mashina yoki qo'lda to'qilgan trikotaj (Kod – 61) egalladi (34 foiz).

Mazkur mahsulot turi bozorda eng yuqori talabga ega bo'lib, tayyor va dizayni mukammal mahsulotlarning ustunligini ko'rsatadi.

Ikkinchi o'rinda trikotajdan tashqari kiyim mahsulotlari (Kod – 62) joylashgan bo'lib, ularning ulushi 31 foizni tashkil etadi. Bu esa tayyor kiyim–kechak mahsulotlariga bo'lgan global ehtiyojning yuqoriligini bildiradi.

Ushbu ikki mahsulot guruhi birgalikda xalqaro to'qimachilik importining 65 foizidan ortig'ini tashkil etadi.

Nisbatan kichik ulushga ega mahsulotlarga quyidagilar kiradi:


paxta va kimyoviy iplar – 7 foiz,

kimyoviy tolalar – 6 foiz,

trikotaj matolar – 5 foiz.

Gilamlar, to'qimachilik materiallari, maxsus gazlamalar va ipak mahsulotlari esa juda past ulush bilan ishtirok etmoqda.

Umuman olganda, bozorda tayyor kiyim–kechak mahsulotlari yetakchilik qilmoqda. Bu esa yuqori sifatli, raqobatbardosh va brend mahsulotlarga bo'lgan global talabning kuchliligini ifodalaydi. (3-rasm)



3-rasm Xalqaro bozorda to'qimachilik mahsulotlari ulushi [14]



Rossiya, Xitoy va Turkiya O'zbekistonning to'qimachilik mahsulotlari uchun strategik jihatdan muhim savdo yo'nalishlari hisoblanadi. Shu sababli ushbu mamlakatlarning bu turdagi mahsulotlari bo'yicha 2024–yilga oid import ma'lumotlari tahlil qilindi.

Xitoy to'qimachilik mahsulotlari uchun eng yirik bozor sanaladi. Mazkur davlat paxta to'qimachilik mahsulotlarini (Kod – 52) 9 335,7 ming AQSH dollar hajmda import qilgan (2024–yil). Shu bilan birga, mashina yoki qo'lda to'qilgan trikotaj matolar (Kod – 60), maxsus gazlamalar (Kod – 58), hamda to'qimachilik materiallari (Kod – 59) kabi tikuvchilik sanoati uchun muhim bo'lgan mahsulotlar importi so'nggi to'rt yilda sezilarli darajada qisqargani kuzatilmoqda.

Ushbu holat, bir tomondan, Xitoyning tayyor kiyim-kechak eksporti qisqargani bilan izohlanishi mumkin bo'lsa, ikkinchi tomondan esa mamlakatning ichki xomashyo bazasidan samarali foydalanishga va ishlab chiqaruvchi quvvatlardan to'liq foydalanishga bo'lgan intilishini aks ettiradi.

Rossiyada tayyor mahsulotlar, xususan trikotaj kiyim-kechak va paxta mahsulotlariga talab yuqori bo'lib, ular bo'yicha import hajmi va yillik o'sish sur'atlari barqaror. Bu esa Rossiyani O'zbekiston mahsulotlari uchun istiqbolli bozorga aylantiradi.

Turkiya esa so'nggi yillarda tayyor kiyim-kechak va maxsus gazlamalar importini sezilarli darajada oshirgan. Ulardan, ayniqsa, Kod – 61 va Kod – 62 mahsulotlari asosiy ulushni tashkil qilmoqda.

Geografik jihatdan, Rossiya va Turkiya Xitoyga qaraganda O'zbekistonga yaqin joylashgan bo'lib, bu transport va logistika xarajatlarining nisbatan arzonligini ta'minlaydi. Shu sababli, bu bozorlarga chiqishda O'zbekiston ishlab chiqaruvchilari uchun raqobat ustunligi mavjud.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston mazkur davlatlarga xomashyo emas, balki yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar – brendli kiyim-kechak, texnik matolar va maxsus gazlamalar bilan chiqishi lozim.

Shu orqali:

eksportni diversifikatsiya qilish,

qiymat zanjirining yuqori bosqichlariga ko'tarilish,

va iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin bo'ladi (3-jadval).

3-jadval. Xalqaro bozorda to'qimachilik mahsulotlari importi 2024-yil [14]³

Kod	Importchilar	2024-yilda import qilingan qiymat (ming. AQSh dollari)			Importning yillik o'sishi 2020-2024 (foiz)			Importning o'rtacha masofasi (km)		
		RUS	CHN	TUR	RUS	CHN	TUR	RUS	CHN	TUR
50	Ipak	6,008	83,2	27,3	-2	10	9	3888	4093	6364
52	Paxta (Kalava Ip va boshqa)	934,4	9335,7	2377,7	14	1	-4	2841	8745	5743
54	Kimyoviy iplar	730,7	2093,7	1783,5	9	-4	-1	4627	3620	5539
55	Kimyoviy tolalar	780,8	1535,5	1655	10	6	0	4448	5008	5516
56	Vata, kigiz va maxsus yigirilgan ip;	460,2	1118,5	426,8	-2	-8	1	3764	4766	3541
57	Gilamlar	176,7	90,1	91	-2	0	9	3526	6031	3501
58	Maxsus gazlamalar;	122	269,8	174,5	-2	-7	8	4359	4157	4876
59	To'qimachilik materiallari	480,9	1285,9	487,5	2	-5	7	4625	4142	4632
60	Mashina yoki qo'lda to'qilgan trikotaj matolar	767,6	645,6	474,1	15	-13	9	3534	2620	5505
61	Kiyim-kechak mahsulotlari, mashina yoki qo'lda to'qilgan trikotaj	3993	3859,5	1704,9	8	0	34	3583	5714	4875
62	Kiyim mahsulotlari (trikotajlaridan tashqari)	3029	5894	1993,1	-2	3	31	5982	3860	4788



Xalqaro bozorda to'qimachilik mahsulotlari importi asosan Xitoy va Turkiya orqali shakllanmoqda. Xitoy xomashyo va tayyor mahsulotlarda ustunlikka ega bo'lsa, Turkiya esa sifatli tayyor kiyim-kechak mahsulotlari bilan ajralib turadi. Bu ko'rsatkichlar ushbu ikki mamlakatning xalqaro ta'minot zanjiridagi yetakchilik mavqeini tasdiqlaydi.

2024-yilda mamlakatimiz uchun istiqbolli hamkor hisoblangan Xitoy (CHN) to'qimachilik mahsulotlari import geografiyasini tahlil qilar ekanmiz, trikotaj bo'lmagan tayyor kiyim-kechak mahsulotlari (Kod – 62) bo'yicha 5,89 mlrd. AQSH dollar miqdorida import amalga oshirilganini ko'ramiz.

Eng yirik yetkazib beruvchi davlat Italiya bo'lib, u 1,59 mlrd. AQSH dollar bilan umumiy importning 27 foizini tashkil etgan. Keyingi o'rinlarda:

Vyetnam – 1,15 mlrd. AQSH dollar (19,5 foiz),

Ruminiya – 6,1 foiz,

Fransiya – 5,2 foiz,

joylashgan bo'lib, bu davlatlar asosan yuqori sifatli va brendli mahsulotlarni yetkazib bermoqda.

Shuningdek, Bangladesh, Indoneziya, Janubiy Koreya va Kanada 2–4 foizlik ulushga ega. Turkiya, Tailand, Hindiston va Yaponiya kabi mamlakatlar esa 1–2 foiz atrofida ishtirok etmoqda.

O'zbekiston esa mazkur mahsulotlar bo'yicha Xitoyga atigi 12,3 ming AQSH dollarlik eksport amalga oshirgan bo'lib, bu umumiy ulushning 0,0 foizini tashkil qiladi. Ushbu ko'rsatkich O'zbekistonning Xitoy bozorida bu toifadagi mahsulotlar bilan deyarli ishtirok etmayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, mazkur davrda Xitoy Xalq Respublikasi kiyim-kechak mahsulotlari importi bo'yicha dunyoning eng yirik xaridor davlatlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mashina yoki qo'lda to'qilgan trikotaj (Kod – 61) importi 3,86 mlrd. AQSH dollar miqdorida bo'lgan bo'lib:

Italiya – 25 %,

Vyetnam – 18,7 %,

Kambodja – 7,4 %

yetakchi o'rinlarni egallagan.

O'zbekistonning bu yo'nalishdagi eksporti atigi 11 ming AQSH dollarni tashkil etib, 0,0 foiz ulush bilan ifodalanadi.

Trikotaj bo'lmagan mahsulotlar (Kod – 62) importi 5,89 mlrd. AQSH dollarga yetgan bo'lib, unda:

Italiya – 27 %,

Vyetnam – 19,5 %,

Ruminiya – 6,1 %

yetakchilik qilmoqda. O'zbekiston bu segmentda 12,3 ming AQSH dollar hajmida eksport amalga oshirgan.

Ushbu raqamlar O'zbekistonning Xitoy bozoridagi ishtiroki hozircha nihoyatda past ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu yo'nalishdagi past ulush mamlakat uchun keng salohiyat mavjudligini anglatadi.

Eksport hajmini oshirish uchun:

mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish,

ishlab chiqarish samaradorligini oshirish,

zamonaviy dizayn va moda tendensiyalarini hisobga olish,

shuningdek, xitoylik importyorlar bilan bevosita hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim.

Tayyor va brend mahsulotlar eksportini rivojlantirish orqali Xitoy bozorida raqobatbardosh o'rin egallash imkoniyati mavjud. Shu sababli, Xitoy istiqbolli va strategik eksport yo'nalishi sifatida alohida e'tibor talab qiladi. (4-jadval)

4-jadval. Xitoy (CHN) ning (Kod 61) trikotaj bo'lgan kiyim-kechak mahsulotlari va (Kod 62) trikotaj bo'lmagan kiyim mahsulotlari importi 2024-yil.[14]⁴

Kiyim-kechak mahsulotlari, mashina yoki qo'lda to'qilgan trikotaj (kod 61)				Trikotaj bo'lmagan kiyim mahsulotlari (Kod 62)			
№	Hamkor davlatlari	ming AQSH dollari	ulushi foiz	№	Hamkor davlatlari	ming AQSH dollari	ulushi foiz
1	Dunyo	3859545	100	1	Dunyo	5893219	100,0
2	Italiya	963637	25,0	2	Italiya	1590484	27,0
3	Vetnam	720791	18,7	3	Vetnam	1146521	19,5
4	Kambodja	285604	7,4	4	Ruminiya	356658,8	6,1
5	Portugaliya	276211	7,2	5	Fransiya	304005	5,2



6	Xitoy	207965	5,4	6	Xitoy	287773,8	4,9
7	Bangladesh	188922	4,9	7	Bangladesh	262264,2	4,5
8	Turkiya	140671	3,6	8	Indoneziya	195364,7	3,3
9	Koreya Respublikasi	124085	3,2	9	Kanada	164165,9	2,8
10	Indoneziya	121870	3,2	10	Koreya Respublikasi	163280,5	2,8
11	O'zbekiston	11	0,0	11	O'zbekiston	12,339	0,0

Ma'lumki, Koreya Respublikasi O'zbekiston uchun eksport salohiyati yuqori bo'lgan istiqbolli bozor hisoblanadi. Ushbu bozorda raqobatbardosh mahsulotlar bilan ishtirok etish eksport diversifikatsiyasini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, mazkur mamlakatning xuddi shu toifadagi ikkita mahsulot — trikotaj va trikotaj bo'lmagan tayyor kiyim-kechak importi tahliliga e'tibor qaratamiz.

Trikotaj mahsulotlari (Kod – 61) importi umumiy hisobda 5,08 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. Bu yo'nalishda:

Xitoy eng yirik yetkazib beruvchi bo'lib, 2,13 mlrd. AQSH dollar (41,9 foiz) bilan yetakchilik qilmoqda;

undan keyin Vyetnam (23,9 foiz),

Italiya (6,1 foiz),

va Bangladesh (5,9 foiz) o'rin olgan.

O'zbekiston ushbu segmentda atigi 1,28 mln. AQSH dollarlik mahsulot eksport qilgan bo'lib, bu umumiy hajmning 0,03 foizini tashkil etadi.

Trikotaj bo'lmagan kiyim-kechak mahsulotlari (Kod – 62) bo'yicha esa import hajmi 7,29 mlrd. AQSH dollari tashkil etdi. Bu yo'nalishda ham:

Xitoy (32,9 foiz) va

Vyetnam (31,3 foiz) eng yirik savdo hamkorlaridir,

Italiya esa 7,6 foizlik ulush bilan uchinchi o'rinda qayd etilgan.

O'zbekistonning ushbu segmentdagi ishtiroki esa nihoyatda past bo'lib, bor-yo'g'i 4,1 ming AQSH dollari tashkil etdi.(5-jadval).

5-jadval. Koreyaning (Kod 61) trikotaj bo'lgan kiyim-kechak mahsulotlari va (Kod 62) trikotaj bo'lmagan kiyim mahsulotlari importi 2024-yil. [14]⁵

Kiyim-kechak mahsulotlari, mashina yoki qo'lda to'qilgan trikotaj (kod 61)				Trikotaj bo'lmagan kiyim mahsulotlari (Kod 62)			
№	Hamkor davlatlari	ming AQSH dollari	ulushi foiz	№	Hamkor davlatlari	ming AQSH dollari	ulushi foiz
1	Dunyo	5083166,3	100	1	Dunyo	7285027	100
2	Xitoy	2128013,4	41,9	2	Xitoy	2394533	32,9
3	Vetnam	1219706,7	24,0	3	Vetnam	2277075	31,3
4	Italiya	311746,9	6,1	4	Italiya	555454,5	7,6
5	Bangladesh	297559,0	5,9	5	Myanma	351329,2	4,8
6	Indoneziya	245427,7	4,8	6	Indoneziya	323735,4	4,4
7	Kambodja	134308,6	2,6	7	Bangladesh	313840,2	4,3
8	Portugaliya	113630,1	2,2	8	Ruminiya	149033,4	2,0
9	Myanma	99752,0	2,0	9	Fransiya	97777,62	1,3
10	Turkiya	60658,2	1,2	10	Kambodja	72794,97	1,0
11	O'zbekiston	1283,2	0,0	11	O'zbekiston	4,116	0,0



Mazkur ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, O'zbekistonning Koreya bozoridagi ulushi nihoyatda past. Biroq ushbu istiqbolli bozorga eksport hajmini oshirish uchun bir qator muhim omillar mavjud.

Avvalo, eksport qilinayotgan mahsulotlar xalqaro sifat va ekologik standartlarga to'liq mos bo'lishi zarur. Koreya bozorida zamonaviy dizayn hamda moda talablariga javob beradigan mahsulotlar yuqori baholanadi.

Bundan tashqari, narx siyosati va logistika samaradorligi ham muhim raqobat omillaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, mahsulotlar uchun milliy brendlarni shakllantirish va Koreya bilan ikki tomonlama savdo shartnomalarini kuchaytirish ham strategik ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston to'qimachilik va tikuv sanoati so'nggi yillarda iqtisodiy rivojlanish va eksport diversifikatsiyasi yo'lida muhim strategik sohalardan biriga aylangan. 2017–2024–yillar davomida xom paxta eksportining keskin kamayib, uning o'rnini yuqori darajada qayta ishlangan iplar, matolar va tayyor kiyim–kechak mahsulotlari egallagani, sanoatning vertikal diversifikatsiyasi chuqurlashib borayotganidan dalolat beradi.

Xalqaro tajriba ham shuni ko'rsatmoqdaki, Janubi–Sharqiy Osiyo mamlakatlari (Bangladesh, Vietnam, Kambodja) ishchi kuchi arzonligi, texnologik moslashuvchanligi va brend mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyati tufayli global to'qimachilik zanjirlarida ustun mavqega ega bo'lmoqda. Shu bilan birga, Xitoyda o'rtacha ish haqi oshib borayotgani fonida yengil sanoat eksportining qisqarayotgani kuzatilmoqda. Bu esa O'zbekiston uchun global ta'minot zanjirida bo'shayotgan o'rinni egallash uchun noyob imkoniyat hisoblanadi.

Tayyor mahsulotlar ulushining oshib borayotgani, mahsulot turlarining kengayishi va sifat ko'rsatkichlarining yaxshilanishi O'zbekiston to'qimachilik eksportida sifat jihatdan yangi bosqichga o'tilayotganini bildiradi.

To'qimachilik eksportida Rossiya, Xitoy, Turkiya, Qozog'iston va Qirg'iziston asosiy savdo hamkorlari sifatida yetakchilik qilmoqda. Xitoy va Janubiy Koreya bozorlari bilan salbiy tashqi savdo saldosining mavjudligi, ushbu yo'nalishlarga eksportni faollashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Bunday sharoitda to'qimachilik mahsulotlari eksporti bu tafovutni kamaytirishning eng maqbul yo'li sifatida namoyon bo'lib, bo'sh qaytayotgan transport vositalaridan foydalanish orqali logistika xarajatlarini sezilarli kamaytirish imkonini beradi.

O'zbekistonning to'qimachilik va tikuv sanoati mahsulotlarini xalqaro bozorlarda, ayniqsa Yevroosiyo va Osiyo mintaqalarida muvaffaqiyatli ilgari surish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarda chora–tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Birinchidan, Xitoy va Janubiy Koreya kabi yirik va yuqori talabga ega bo'lgan bozorlar bilan eksport aloqalarini chuqurlashtirish lozim. Ushbu davlatlar bilan O'zbekiston tashqi savdosida salbiy saldo mavjud bo'lib, eksportni aynan shu yo'nalishlarga kengaytirish orqali nafaqat savdo muvozanatini tiklash, balki bo'sh qaytayotgan transport vositalaridan samarali foydalanish hisobiga logistika xarajatlarini kamaytirish mumkin. Bu davlatlardagi kiyim–kechak bozorlarining yuqori talabi, dizayn va sifat standartlari chuqur tahlil qilinib, ularga moslashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha alohida eksport strategiyasi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, to'qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirish uchun ishlab chiqarishni raqamli va avtomatlashtirilgan texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish talab etiladi. Ayniqsa, ekologik toza va organik mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni sezilarli darajada oshiradi.

Uchinchidan, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishda arzon, lekin malakali mehnat kuchidan oqilona foydalanish zarur. Bu borada O'zbekiston Janubiy Osiyo davlatlariga o'xshash narx ustunligiga ega bo'lib, bu afzallikdan foydalanib, xorijiy buyurtmachilarni jalb etish imkoniyati mavjud.

To'rtinchidan, mahsulotlarni xorijiy bozorlarda ilgari surish uchun zamonaviy eksport marketingi va brending siyosatini kuchaytirish lozim. Yuqori sifatli, dizayni mukammal va xalqaro talabga javob beradigan milliy brendlar shakllantirilib, ularning reklamasi va targ'iboti ustuvor vazifalardan biri bo'lishi kerak.

Beshinchidan, eksportchilarni, ayniqsa kichik va o'rta biznes vakillarini moliyaviy va texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash zarur. Xususan, eksport kreditlari, eksport sug'urtasi mexanizmlari, bojxona va sertifikatlash jarayonlarini soddalashtirish orqali eksportga chiqishdagi to'siqlarni kamaytirish mumkin. Yuqoridagi takliflarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi O'zbekistonning to'qimachilik sanoatini eksportdrayverga aylantirib, mamlakat iqtisodiyotining barqaror va yuqori sur'atlarda o'sishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Statista — The Statistics Portal for Market Data, Market Research and Insights (Bozor ma'lumotlari, tadqiqotlari va tahlillari statistik portali) // Statista. — URL: <https://www.statista.com/> (murojaat qilingan sana: 27.03.2025).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020–yil 5-oktyabrdagi PF–6079–sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/5018039>



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–yil 16–sentabrda "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora–tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4453–sonli qarori. <https://lex.uz/docs/4504027>
4. Burdenko, Ye. V., va Bykasova, Ye. V. (2011). "Analiz struktury eksporta i importa produktsii shveynoy i tekstilnoy promyshlennosti Rossiyskoy Federatsii." Regionalnaya ekonomika: teoriya i praktika, 30: 29–34.
5. Amine, L. S., & Cavusgil, S. T. (1986). "Export marketing strategies in the British clothing industry." European Journal of Marketing, 20(7), 21–33.
6. Ali, M., Khan, Z. H., & Hossain, M. E. (2022). "Comparative Advantage, Export Diversification, Intra-Industry Trade, and Economic Growth Nexus: Evidence from Bangladesh's Textile and Clothing Industry." AIUB Journal of Business and Economics, 19(1), 226–250.
7. Tsang, W. Y., & Au, K. F. (2008). "Textile and clothing exports of selected South and Southeast Asian countries: A challenge to NAFTA trading." Journal of Fashion Marketing and Management: An International Journal, 12(4), 565–578.
8. Gereffi, G. (2014). Global Value Chains in Textile Industry. New York: Duke University Press. — 320 p.
9. Frederick, S. (2020). Regional Textile Clusters and Export Growth. Durham: Duke University. — 180 p.
10. Otamurodov, Sh. N. (2024). "O'zbekiston sanoat mahsulotlari eksportining rivojlanish istiqbollari." Fan va ta'lim, 2024–yil, 2–son, 45–49–betlar.
11. Xodjaeva, G. A. (2024). "O'zbekistonda to'qimachilik sanoati tarmog'ining rivojlanish tendensiyalari." O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 3(35), 517–524.
12. Shakirova, Y. S. (2021). "Perspektivy razvitiya tekstilnoy promyshlennosti Uzbekistana i vozmozhnosti uvelicheniya eksportnogo potentsiala." Byulleten nauki i praktiki, 7(12), 256–263.
13. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. Ochiq ma'lumotlar rasmiy sayti. — URL: <https://www.stat.uz/>
14. World Bank Group. (n.d.). World Integrated Trade Solution (WITS) [Onlayn ma'lumotlar bazasi].



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
